

“JAHON IQTISODIY VA IJTIMOYIY GEOGRAFIYASI” FANINI
O‘QITISHDA FANLARARO ALOQADORLIKNI TA’MINLASH

Abdullayev M.D.

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

Аннотация: В данной статье рассматриваются вопросы межпредметной коммуникации в преподавании «Всемирной экономической и социальной географии» в 10 классе общеобразовательной школы.

Ключевые слова: экономика, геополитика, международные отношения, история, демография, экология, транспорт, логистика, архитектура.

Annotation: This article covers the issues of interdisciplinary communication in the teaching of "World Economic and Social Geography" taught in the 10th grade of general secondary schools.

Key words: economy, geopolitics, international relations, history, demography, ecology, transport, logistics, architecture.

Bugungi kunda fanlarni o‘qitishda zamonaviy ta’lim berish ayni paytda global miqyosda katta ahamiyat kasb etadi. Zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, innovatsion pedagogik yondashuvlarni ta’lim jarayoniga tatbiq etish orqali o‘qitish samaradorligini oshirish va o‘quvchilarni raqamli davrga mos tayyorlash maqsad qilib qo‘yilmoqda. Bunda rivojlangan mamlakatlarning ilg‘or tajribalarini o‘rganish va mahalliy sharoitlarga moslashtirish ta’lim tizimini yangilashda muhim rol o‘ynaydi.

Maktab ta’limida “Jahon iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasi” fani zamonaviy dunyoning murakkab va tez o‘zgarib borayotgan sharoitlarini tushunishga yordam beradi. Iqtisodiy-ijtimoiy geografiya o‘quvchilarga global iqtisodiy jarayonlar, demografik tendensiyalar siyosiy va ekologik muammolarni chuqurroq tushunishga imkon yaratadi.

“Jahon iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasi” fani fanlararo aloqadorlikka ega bo‘lgan fandir. Ushbu fan jahon mamlakatlarining tabiiy, ijtimoiy va iqtisodiy resurslari bilan bog‘liq masalalarni o‘rganish orqali ko‘plab fanlar bilan uzviy aloqada bo‘ladi. Buning natijasida o‘quvchilar nafaqat geografik bilimlarni, balki boshqa fanlar orqali kengroq tushunchalar va qobiliyatlarni ham shakllantiradi. Bu fanlararo aloqadorlik o‘quvchilarga global jarayonlarni chuqurroq anglash va ularni turli nuqtai nazardan tahlil qilish imkonini beradi. “Jahon iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasi” fanini chuqurroq tushunish uchun ta’limni quydagi fanlar bilan uzviylikda olib borish yaxshi samara beradi. *Iqtisodiyot* iqtisodiy nazariyalar, makro va mikroiqtisodiyot bo‘yicha bilimlar jahon iqtisodiy geografiyasining asosiy tushunchalarini chuqurroq anglashga yordam beradi.

Geosiyosat geosiyosiy vaziyatlar, xalqaro nizolar va ularning iqtisodiy-ijtimoiy oqibatlarini o‘rganish ushbu fan bilan chambarchas bog‘liqdir. Shuningdek, geografiya ta’limi orqali o‘quvchilar jahon siyosiy xaritasi, davlatlararo munosabatlar va xalqaro tashkilotlar haqida bilim olishadi.

«ПЕРСПЕКТИВЫ РАЗВИТИЯ ОТРАСЛЕЙ НАРОДНОГО ХОЗЯЙСТВА В БАССЕЙНЕ АРАЛЬСКОГО МОРЯ В УСЛОВИЯХ ГЛОБАЛЬНЫХ КЛИМАТИЧЕСКИХ ИЗМЕНЕНИЙ»

МЕЖДУНАРОДНАЯ НАУЧНО-ТЕОРЕТИЧЕСКАЯ КОНФЕРЕНЦИЯ

Xalqaro aloqalar xalqaro siyosat va diplomatiyani o'rganish mamlakatlar o'rtasidagi iqtisodiy va siyosiy aloqalarni yaxshiroq tushunishga yordam beradi.

Tarix fani tarixiy jarayonlar, ularning geografik va iqtisodiy ta'sirlarini bilish mamlakatlar rivojlanishiga oid bilimlarni egallashga imkon beradi. .

Huquqshunoslik xalqaro huquq va iqtisodiy qonunlar, davlatlar o'rtasidagi savdo va iqtisodiy aloqalarni chuqurroq tahlil qilishga imkoniyat yaratadi.

Sotsiologiya ijtimoiy tuzilma, demografiya va inson resurslari kabi tushunchalarni o'rganish ijtimoiy geografiya bo'yicha tushunchalarni kengaytiradi.

Demografiya aholi tarkibi, aholi o'sishi, migratsiya jarayonlarini o'rganish va ijtimoiy geografiyaga tegishli masalalarni yaxshiroq tushunishda yordam beradi.

Madaniyatshunoslik global geografiya ta'limi o'quvchilarga dunyodagi turli xalqlarning madaniyatlari, urf-odatlar va hayot tarzlarini o'rganish imkoniyatini beradi.

Ekologiya dunyodagi turli ekologik tizimlar, tabiiy resurslar va ularning muhofazasi haqida bilim olish o'quvchilarga ekologik mas'uliyatni rivojlantirish imkonini beradi. Ekologiya "Jahon iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasi" fani bilan chambarchas bog'liqdir.

Shaharsozlik va arxitektura shaharlashuv jarayonlari, urbanizatsiya, shahar infratuzilmasini o'rganish ijtimoiy va iqtisodiy geografiyaning shaharlar bilan bog'liq jihatlarni tahlil qilishga yordam beradi.

Transport va logistika xalqaro transport tizimlari, logistika, global savdo tarmoqlarini o'rganish va mamlakatlar o'rtasidagi iqtisodiy aloqalarni yanada chuqurroq tushunishga yordam beradi.

Matematika va statistika statistik usullarni qo'llash orqali iqtisodiy, demografik ko'rsatkichlarni tahlil qilish, turli ma'lumotlarni vizualizatsiya qilish va tahlil qilish asosida o'quvchilarga fanni chuqurroq tushunishda yordam beradi.

Axborot texnologiyalari hozirgi kunda geografiya ta'limi raqamli texnologiyalar bilan bog'liq holda rivojlanmoqda. Unda geografik axborot tizimlari va masofaviy zondlash texnologiyalari o'quvchilarga joylashuvga asoslangan ma'lumotlarni tahlil qilish imkonini beradi. Ta'lim jarayonida yuqoridagi fanlar bilan uzviylikda "Jahon iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasi" fanini olib borish global jarayonlarni yanada kengroq nuqtai nazardan tahlil qilishga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mo'minov O. Geografiya ta'limi metodikasi. – T.: O'qituvchi, 1986. – B. 208
2. Xodiyev B.Yu., Abdullayev O.M., Inomov I., Abdullayeva G. Yangi pedagogik texnologiyalar. – T.: 2007. – B. 13
3. Yakubov O'., Alimqulov N. Geografik tadqiqotlar metodologiyasi va metodlari. Metodik qo'llanma. – Toshkent. 2015. – B. 8
4. Qayumov A., Safarov I., Tillaboyeva M., Fedorko V. Jahon iqtisodiy-ijtimoiy geografiyasi. Darslik. – T.: O'zbekiston. 2019
5. Qo'ldasheva M.N. Jahon iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasi fanini o'qitishning ilmiy-metodik asoslarini takomillashtirish: ped. fan. fal. dok. (PhD)...diss. – Namangan. 2020. -131 b